

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ONA TILI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIK ASOSLARI

*Ishankulova Dilfuza Ochilkulovna*

*Samarqand tuman 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

*boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ona tili darslarini samarali tashkil qilish hamda zamonaviy metod va usullar orqali o‘qitish yo‘llari haqida fikr bildirilgan. O‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar yuzasidan fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, ona tili, matn bilan ishlash, nutq, rasmlı metodika, savol va topshiriqlar.

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim va tarbiya masalasi yetakchi o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi. Maktab ta’limida, xususan, boshlang‘ich ta’limda mustaqillik yillardan boshlab sezilarli ishlar, turli tadqiqotlar qilina boshlandi. Ona tili mavqeyini oshirish, ajdodlarimiz merosini qayta tiklash, turkiy tilda yaratilgan asarlarni to‘plash eng dolzarb vazifaga aylandi. Ona tili ta’limiga e’tibor 1989-yil 21-oktabrda “O‘zbek tiliga Davlat tili maqomini berish haqida”gi qaroridan so‘ng kuchga kira boshlagani sir emas. Ketma-ketlikda “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi tilimizga bo‘lgan hurmatning oshishiga ma’lum ma’noda xizmat qildi. Ona tiliga oid dasturlar, darsliklar maktab o‘quvchilariga taqdim etildi. Darslarni zamonaviy metodlar hamda usullar orqali tashkil qilish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozuv mahorati, o‘qish savodxonligini oshirish, matn va imlo bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda bilimli va o‘z dunyoqarashiga ega eng ilg‘or pedagoglar yetishtirila boshlandi. Bu kabi sa’y-harakatlar natijasida ona tili ta’limida ma’lum maqsadlarga erishildi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida ona tili darsliklarini yaratish, shu qatorda darslarini tashkil etish borasida jahon standartlariga to‘laqonli javob beradigan tizim

yaratilayotgani va bu jabhada bir necha yillardan buyon harakat qilinayotgani bizni quvontiradi. Ona tili fanini o‘qitishda dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari, jumladan, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya kabi ta’lim sohasida ilg‘orlayotgan davlatlarga xos bo‘lgan o‘qitish usullarini o‘rganish, tadbiq etish va sinab ko‘rish, kelgusida o‘z milliy o‘qitish tizimimizni yanada boyitishga xizmat qilishiga yordam berishini unutmasligimiz kerak.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilayotgan darsliklar, oldingi darsliklarga qaraganda qiziqarli, oson va qulay o‘rganishga moslashtirilgani, qolaversa, yangi turdagи savol va topshiriqlar bilan boyitilganligi jihatidan keskin farq qiladi. Bilamizki, hozirgacha ona tili darslarini samarali tashkil qilishda pedagoglar tomonidan “Aqliy, hujum”, “savol-javob”, “krossvord”, “xulosa yozish”, “o‘yla, izla, top” kabi metodlardan foydalanishadi. Bu o‘quvchilarni darslarni uzoq muddatda eslab qolishlari hamda mavzu haqida tasavvurga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangani sari ta’lim sohasida ham keskin o‘zgarishlar paydo bo‘la boshladi. Nostandard usullarda o‘quvchilarga ta’lim berish o‘qituvchilarda fasilitatorlik (inglizcha, “osonlashtirish”, “jarayonni soddallashtirish”) ni taqozo qildi. “Raqamli diktantlar”, “o‘yinli topshiriqlar”, “didaktik o‘yinlar”, “kakografiya” kabi bir qancha zamonaviy metod va uslublar ona tilini o‘qitishda o‘zining samarasini berdi. [4]

Dunyo tan olgan, ta’lim jarayoni uchun samarali deb topilgan dars jarayonida o‘qituvchining ishini yengillashtirish, o‘quvchilar bilan oson kelisha olish, dars jarayonini tushuntirishda o‘qituvchiga ortiqcha yuklamalarni kamaytirish uchun kerak bo‘ladigan usullardan biri bu matn yaratish va matn bilan bog‘liq topshiriqlar ustida ishslashdir.

Matn bilan ishslash o‘quvchining og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishga, ijodiy tasavvurini oshirishga xizmat qiladi. Nutqi va zehniyati o‘sishiga yordam beradi. O‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi va kelgusida yirik asarlar, jumladan qissa va romanlarni tushunishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf darsliklariga, xususan, 4-sinf ona tili darsligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, darslikda rasm bilan bog‘liq topshiriqlarga keng urg‘u berilganini ko‘ramiz. Biz ushbu maqolada darslikda keltirilgan rasmlar orqali matn yaratish hamda

o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undaydigan topshiriqlar xususida ba’zi amaliy tavsiyalar berishni maqsad qildik.

4-sinf ona tili darsligidagi rasmlarga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, rasmni kuzating. Rasm asosida insho yozing [5. 130-b] yoki rasmni kuzating. Rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo‘ying [5.174-b] kabi topshiriqlarni uchratamiz. Darslikning 130-sahifasidan joy olgan hamda 313-mashqda keltirilgan rasm asosida qo‘shimcha topshiriqlar tayyorlashga harakat qilamiz



### Topshiriqlar:

#### I. Savollarga javob bering.

1. Yuqoridagi rasmda qaysi fasl tasvirlangan?
2. Qish faslida nimalar qilasiz?

#### II. Quydagi so‘zlarni lug‘at daftaringizga yozing. So‘zlar bilan bog‘liq gaplar tuzing.

Tahmin.....

**Qish** Ma’no.....

Jumla.....

Tahmin.....

**Qor** Ma’no.....

Jumla.....

Tahmin.....

**O‘yin** Ma’no.....

Jumla.....

Tahmin.....


**Oq** Ma’no.....

Jumla.....

### III. Berilgan so‘zlarning ma’nodoshini toping.

- |                   |       |
|-------------------|-------|
| 1. Sovuq .....    | ..... |
| 2. Chiroy .....   | ..... |
| 3. Qor odam ..... | ..... |
| 4. Bayram .....   | ..... |
| 5. Fasl .....     | ..... |

### IV. Qish fasliga xos o‘yinlarni toping.



Yuqorida keltirilgan topshiriqlar 4-sinf o‘quvchisi rasmni anglashiga yordam beradi. Foydalanilgan so‘zlar yordamida jumlalar qurishga harakat qiladi. Shu asnoda grammatik qoidalarni ham o‘zlashtirish jarayoni osonlashadi. O‘qituvchi bola bilan ishslashda qiyinchilikka uchramaydi. Oddiydan murakkabga, xususiydan umumiylikka qarab boradi. Alovida berilgan so‘zlarni xayolida jonlantiradi, ma’nosini ustozni yordamida aniqlaydi va shunga mos gap tuzadi. Keyingi topshiriqlar esa so‘zlarning yaqin ma’nosini izlashga, topqirlilikka va lug‘at boyligini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatga molik. Oxirgi topshiriq orqali o‘quvchilarining og‘zaki nutqi mustahkamlanadi. O‘quvchilar mavzumga oid o‘yinlarni topadilar va o‘yin haqida ma’lumot beradilar. Albatta, bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarni katta yozma ishlar, jumladan, bayon va insho yozishga hamda yozma nutqini ravon so‘zlay olishi uchun dastlabki qadam bo‘ladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish zarurki, zamonaviy metod va uslublar fanning o‘qitilish sifati va samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ona tili fani o‘quvchini mustaqil fikrashga, og‘zaki va yozma nutqini ravon bayon qilishga

tayyorlaydi. Uning jamiyatda tutgan o‘rni, insonlar bilan o‘zaro munosabati, albatta, ona tilidan olgan bilim va malakalarining natijasi hisoblanadi. Shuning uchun har bir jamiyatda til ta’limi asosiy va ajralmas bo‘lak hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. G‘ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 b.
2. B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, A. Ziyodova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.; 2006, 192 b.
3. Ona tili o‘qitish metodikasi  
(Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyen. – T.: “Noshir”, - 2019. 352b.
4. Nizomova Ismigul, “Globallashuv jarayonida ona tili ta’limini tashkil etishga doir ayrim mulohazalar. Ilmiy maqola, “Theoretical and practical foundations of scientific progress in modern society”
5. Ona tili [Matn]: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik/ R. Ikromova [va boshq.] 8-nashri- Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2017. - 192b.